

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI




ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK
VA DERIVATSION QONUNIYATLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI

Samarqand - 2017

ISBN 978-9943-4399-4-8



туради. Иловали конструкциялар “одатдагидан ташқари тартибга эга бўлган “алоқалар” бўлиб, бу унинг ташқи белгиси ҳисобланади. Функционал жиҳатдан эътибори билан эса улар сўзловчининг нутқидаги содда услубни, унинг оғзаки сўзлашувига хос хусусиятларини акс эттиради. Шу сабабли бундай конструкцияларни текширишда уларга кўпроқ стилистика фани нуктаи назаридан ёндашиб иш кўришга тўғри келади.

Маълумки, стилистика тилдаги элементларни, воситаларни нутқда қандай қўлланилишини ёки ёзувчининг бирон-бир фикрини ифодалашда тутган ўзига хос услубий маҳоратини ўрганадиган фан бўлиб, ўз навбатида бадиий нутқ услубий, илмий характердаги нутқ услуби, ўзаро ёзишмалар ва амалий идора ишларида қўлланиладиган нутқ услуби сингари соҳаларга бўлинади.

Таъкидлаш керакки, иловали конструкцияларнинг хусусиятларини изоҳлашда, энг олдин уларнинг нутқидаги ўрни ва функциясини аниқлаш лозим. Сўнгра бундай алоқаларнинг структураси, ундаги қисмларнинг ўзаро муносабати ва грамматикада тутган ўрни белгиланиши лозим. Бу конструкциялар, бирор стилистик вазибаларни бажаришга қаратилган бўлишидан ташқари, синтактик жиҳатдан ҳам ўз изоҳига эга бўлиши керак ва амалий томондан уларни қандай тушуниш лозимлиги конкретлаштирилиши лозим.

Бошқача айтганда, маълум синтактик гуруҳлар (бу гуруҳлар содда гап шаклида бўладими, сўз ёки сўз бирикмаларидан иборат бўладими, бундан қатъи назар) ўзида ифода қилинган мазмунга илова тарзида айтилган қўшимча қисми бириктиради. Натижада бир умумий фикрни англатадиган алоқалар юзага келади. Иловали конструкциянинг умумий кўриниши ва айрим хусусиятлари ҳақида тасаввурга эга бўлиш учун қуйидаги мисолни келтирамиз.

Und damit sollte nicht nur gesagt sein, daß Gottlieb sich zu allen, die auf pramkes seite Standen. Zu der Roten. (Witlegel. Ein Katten Sprung-S-172).

Бу иловали конструкция икки қисмдан иборат. Биринчи қисм – асосий қисм, иккинчиси - иловали қисм. Сўзловчининг асосий фикри „Und damit sollte nicht nur gesagt sein, daß Gottlieb sich zu allen, die auf pramkes seite Standen“ қисмида баён қилинган. Шуни ҳам қайд этиш мумкинки, иловали қисм асосий қисмнинг мазмунини тўлдириб, конкретлаштириб келади.

Адабиётлар

1. Расулов И. Мураккаб синтактик бутунлик. Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, №1, с. 22-26
2. Турсунов Б.Т. Облакулова С.Х. Библиографический указатель по вопросам сложного синтаксического услого, присоединение, парцелирование. - Самарканд: Изд-во СамГУ, 1982, с. 70

I.Kamolova (SamDCHT1)

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING O'XSHASH TOMONLARI

Bizga ma'lumki, frazeologik birliklar nutqimizning muhim bir qismi hisoblanadi. Frazeologik birlikmalar ma'lum bir xalqning tarixini, madaniyatini, shu bilan bir qatorda millatning yashash tarzini yaqqol namoyon etib beradi. Vaholanki, frazeologiya milliy qarashlarni, urf-odatlarni o'zida aks ettirib turadi. Shunday ekan ingliz hamda o'zbek tilida ham frazeologik birlikmalar hajmi beqiyosdir.

Agar ingliz frazeologiyasini o'zbek tili frazeologiyasi bilan taqqoslaydigan bo'lsak, ingliz tili frazeologiyasi ham xuddi o'zbek tili frazeologiyasi kabi milliy ruh bilan uyg'unlashgan va ular shu millat yakillari tomonidan yaratilgan shu bilan bir qatorda xalqaro va boshqa millatlardan o'zlashtirib olingan, tarjima qilinadigan yoki qilinmaydigan frazeologik birliklarga boy hisoblanadi.

Bir qator olimlar ingliz frazeologiyasining klassifikatsiyasi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirganlar. Misol tariqasida A.V. Kooninning frazeologik birliklarni guruhlariga ajratganligiga to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. U ingliz frazeologiyasini o'zbek frazeologiyasidan farqli ravishda xuddi so'z turkumlari kabi klassifikatsiya qilgan. Lekin o'zbek tili frazeologiyasida sintaktik uslubda frazeologik birliklarga ajratish holati mavjuddir.

1. Ot frazeologiyasi ya'ni narsa, shaxs va tirik jonzotlarni ifodalaydi. Misol uchun: *bullet train, latchkey child, redbrick university*;

2. Fe'l frazeologiyasi ya'ni harakatni, holatni va his-tuyg'uni ifodalab keladi.

Misol uchun: *to break the log-jam*;

3. Sifat frazeologiyasi, ya'ni belgini anglatib keladi.

Misol uchun: *dull as lead*;

4. Ravish frazeologiyasi

Misol uchun: *two tails like a dream, like a dog with*;

5. Predlog ishtirokidagi frazeologik birliklar.

Misol uchun: *in the course of*

6. Undovli frazeologik birikmalar.

Misol uchun: "Catch me", "Well, I never"

Yuqorida sanab o'tilgan turlar orasida predlog frazeologik birikmalar o'zbek tili frazeologiyasidan keskin farqlanib turuvchi tomoni hisoblanadi. Chunki o'zbek tili grammatikasiga predloglarni uchratmaymiz, ular mavjud emas.

O'zbekistonda ham bir qancha tilshunoshlar o'zbek frazeologiyasi ustida ish olib bormoqdalar. O'zbek tilida frazeologiya quyidagilarni tashkil etadi:

1. Frazeologik birliklar;

2. Maqollar;

3. Aforizmlar;

O'zbek tilshunosligida frazeologik birliklar idioma deb ham yuritiladi va ular quyidagicha ta'riflanadi:

1. Ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topadi;

2. Odatda ko'chma ma'nolarni anglatadi;

3. Ko'pincha tayyor til materiali sifatida qo'llanadi;

4. Ular bir-biridan ajratib bo'lmaydigan birliklar hisoblanadi;

Bu fikrlarimizni tasdiq'ini sifatida quyidagi misollarni keltirib o'tishimiz mumkin:

- Yog' tushsa yalagudek- *toza*;

- Ilonning yog'ini yalagan- *ayyor*;

- Do'ppisini osmonga otmoq- *xursand*;

- Bog'dan kelsa tog'dan keladi;

Frazeologik birliklar so'zma-so'z analiz qilinmaydi, aksincha ular birgalikda hammasi tasnif qilinadi.

Bitta frazaning o'zi bitta sintaktik qism hisoblanadi. O'zbek tilida har qanday sintaktik bo'limda frazeologik birliklarni qo'llash mumkin.

Bunga misol tariqasida:

- Bilamiz, *bo'rk ol desa, bosh olmoq* politsiyaning suygan metodi. (ega)

- Direktor bo'lgandan keyin *dimog' l shishib* ketdi. (kesim)

- Ona degan *yer tagida ilon qimirlasa* biladi. (to'ldirivchi)

- Siz ham o'sha *daqqi yunusdan qolgan afsonaga ishonasizmi?* (aniqlovchi)

- *Damini ichiga yutib*, oyog'ini uchida yurib uyga kirdi. (hol)

Ingliz tilida ham o'zbek tilidagi kabi frazeologik birliklarning sinonimli, antonimli, omoinimli shakllari mavjud. Misol uchun o'zbek tilida "ko'z yummoq" – o'lmoq yoki e'tiborsiz qoldirmoq kabi ma'nolarni beradi.

Ingliz tilida ham xuddi shunday holatni uchratish mumkin.

To make a clean breast of- to confess;

Xulosa qilib aytganda, ikki tilning ham frazeologiyasi juda keng qamrovli hamda beqiyosdir, yuqorida ikki til frazeologiyasining o'shsh va bir-biridan farqlanib turuvchi tomonlarining asosiy tomonlariga to'xtalib o'tdim. Bundan ko'rinib turibdiki, tillar or'tsidagi tafovut va o'xshashliklar e'tiborga loyiqdir. Ularni bilish esa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Sh. Rahmatullayev "O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati". Toshkent 2007;
2. Sh. Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati". -Toshkent 2013;
3. Simpson J.A. Weiner ESC The oxford English Dictionary Oxford. Clarendon 1989.
4. Mc Carthy M., Carter R. "Language as discourse". Perspectives for Language teaching. London and New York, Longman.

S.Abdullaeva (SamSIFL)

PROPER NAMES AND THEIR FUNCTION IN PHRASEOLOGICAL UNITS

Names always play a significant role in the language. Proper names are extremely vital for communication and understanding people. From common words, they are differentiated by the trend towards universal using.

МУНДАРИЖА

I SHO'BA. TIL TARAQQIYOTINING DERIVATSION QONUNIYATLARI	
So'zboshi.....	3
Тухтасинов И.М. Замонавий тилшунослик тараққиётида деривацион жараён.....	4
Turniyazov N. Sintaktik derivatsiya hodisasi va uning voqelanishi usullari haqida.....	5
Бушуй Т.А. Образование фразеологических единиц с флористическим компонентом.....	7
Абдиев М., Садинов Ф. Каммаҳсул ясовчилар ҳақида мулоҳазалар.....	9
Усанова О.Г. Лингвистика педагогического общения.....	11
Пирожкова М. А . Литературно-творческие способности как критерий формирования речевой культуры личности.....	15
Хошим Исмоил Ҳаммам Али. Ўзбекистонда араб тили дарслари сифатини ривожлантириш.....	17
Раҳимов А.С. Сўз ясалиш типи таснифига доир.....	19
Туробов А.М. Сўз ясалиш схемаси-кичик синтаксис доирасида.....	20
Абдуллаев Ж., Бекниязова З. Ўзбек тилида сўз, лексема, сўзшакл муносабати масаласига доир.....	22
Turniyazov V.N. Mikrosintagmatik munosabat haqida.....	24
Турниязова Ш. Гапнинг синтактик тузилиши ҳақида айрим қайдлар.....	25
Назарова Ш. Конверсия ва транспозиция муносабати ҳақида.....	26
Шойимова К.Ў. Гапнинг синтактик қурилишининг тилшунослик тарихида ўрганилиши.....	28
Abdugaimov A.T. So'z yasalishi hodisasining lingvistik tadqiqi (maktab darsliklari misolida).....	29
Бабакулов И.Т., Саломов И.Т. Контраст морфологических систем русского и узбекского языков.....	31
II SHO'BA. SISTEM VA STRUKTUR TILSHUNOSLIK MUAMMOLARI	
Раҳимов Ғ.Х. Дунё инглиз тили вариантлари ҳақида.....	34
Санақулов У. “Девону луготит турк” тил билимининг комусий асаридир.....	35
Бегматов М.Б. Иловали элементларнинг тема – рематик функциялари.....	39
Usmonov M.U. The types of meaning and their interlingual relations.....	40
Souvorova N.N., Fayzoullaeв Kh. Etude comparative le language speciales des contes français et ouzbeks.....	42
Бойматов А.Е., Бойматов А.А., Баҳриддинова Д.О. Речевая характеристика тюркизмов в толковых словарях немецкого языка.....	43
Зокирова З. Т. Коммуникативно-информационная структура текста в современном языкознании.....	45
Жўраев Ш.И. Баъзе калимаҳои ўзбекӣ дар шеваи забони тоҷикӣ.....	46
Яхшиев А.А., Жўрақулов А.Р. Немис тили лексикасининг лугатларда аке этиши.....	47
Усмонов М.У. К проблеме ассимиляции заимствованных слов в современном английском языке.....	50
Абдуллаев Ж., Бекниязова З. Сўз ва лексема тушунчаларига доир баъзи мулоҳазалар.....	52
Джуманазаров Х.М. Лексико-семантические замены в процессе перевода.....	54
Базарбаева А.Ш. Фразеология тилшуносликнинг мустақил тармоғи сифатида.....	56
Мамадалиев М.С. Arab tilidagi ism so'z turkumida siniq ko'plik shakllari.....	57
Фалеева Е.В. Общая грамматикография.....	59
Norova L.H. O'zbek tilshunosligida bayram nomlarining o'rganilishi.....	60
Abdullaeva S. Idioms with proper names master student of SSIFL.....	61
Qayumova Sh.T. Tilshunoslikda metafora va uning badiiy matnda ifodalanishi.....	63
Алибоева А.А. Функционал тилшуносликда гапнинг таҳлили.....	64
Муродинова Н.Р. Прага тилшунослик мактабида гапни бўлақларга ажратиш масалалари.....	66
Сиддиқова Н.Н. Тилида ядро предикатив I (np1) ўрнида келган уюшиқ бўлақларни ифодалаган синтаксемалар.....	68
Gulieva E. F. To the problem of linguistics as the foundation of other language aspects' development.....	69
Ғаниева М.А. Тилшунослик тарихида формал-грамматик мактабнинг шаклланиши.....	70
Аролов З. Валентлик назариясини ўрганишга доир.....	72
Муеинова З.Т. Структурно-грамматический анализ составных терминов хлопководства.....	73
Yakubova M.K. Role and the place of media at learning a foreign language in the higher education system.....	75
Утаев Ш.Ш. Тилшуносликда илова конструкциянинг ўрганилиши ҳақида.....	76
Kamolova I. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning o'xshash tomonlari.....	77
Abdullaeva S. Proper names and their function in phraseological units.....	78